

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 6 368,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 7,7 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 109,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,6 % ga yetdi.

### 2024- yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



107,7 %

6 368,6 mlrd. so'm



109,4 %

2,6 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

	Mird. so‘m		<i>O’sish sur’atlari, o’tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	2023- yil	2024- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>5 404,2</b>	<b>6 368,6</b>	<b>107,7</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati	5 180,6	6 152,5	107,6
mahsulotlarga sof soliqlar	223,6	216,1	109,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati</b>	<b>5 180,6</b>	<b>6 152,5</b>	<b>107,6</b>
<i>qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</i>	<i>1 649,8</i>	<i>1 852,5</i>	<i>103,3</i>
<b>sanoat (qurilishni qo’shgan holda)</b>	<b>1 418,4</b>	<b>1 677,6</b>	<b>113,3</b>
sanoat	1 136,1	1 327,4	112,8
qurilish	282,3	350,2	115,3
<b>xizmatlar</b>	<b>2 112,4</b>	<b>2 622,4</b>	<b>107,1</b>
<i>savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar</i>	<i>457,8</i>	<i>552,4</i>	<i>110,5</i>
<i>tashish va saqlash, axborot va aloqa</i>	<i>248,3</i>	<i>308,6</i>	<i>114,1</i>
<i>boshqa xizmat tarmoqlari</i>	<i>1 406,3</i>	<i>1 761,4</i>	<i>104,8</i>



Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 4 215,1 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 5,4 % ga yuqoridir.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



## 2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

	<b>2023- yil</b>	<b>2024- yil</b>
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati	95,9	96,6
mahsulotlarga sof soliqlar	4,1	3,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi	31,8	30,1
<b>sanoat (qurilishni qo’shgan holda)</b>	<b>27,3</b>	<b>27,3</b>
sanoat	21,9	21,6
qurilish	5,4	5,7
<b>xizmatlar</b>	<b>40,9</b>	<b>42,6</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	8,8	9,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,8	5,0
boshqa xizmat tarmoqlari	27,3	28,6



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI  
ISHLAB CHIQARISH

5

2024- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 96,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 30,1 % ni, sanoat tarmog'i 21,6 % ni, qurilish 5,7 % ni va xizmatlar sohasi 42,6 % ni tashkil qildi.

### Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



31,8 %

Qishloq, o'rmon va  
baliqchilik xo'jaligi

4,1 %

21,9 %

Sanoat

5,4 %

Qurilish

40,9 %

Xizmatlar

2024- yil

Qishloq, o'rmon va  
baliqchilik xo'jaligi

30,1 %

Sanoat

21,6 %

Qurilish

5,7 %

Xizmatlar

42,6 %

3,4 %



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,7 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – salbiy 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,8 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 2,0 f.p.) ijobjiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

### YAHM



7,7 %

### Sanoat



2,7 %

### Xizmatlar



2,8 %

### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



1,0 %

### Qurilish



0,8 %

### Mahsulotlarga sof soliqlar



0,4 %

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiliy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 30,1 %), sanoatda – 112,8 % (21,6 %), qurilishda – 115,3 % (5,7 %), xizmatlar sohasida – 107,1 % ni (42,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,5 % (9,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,1 % (5,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,8 % dan (28,6 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023- y.

2024- y.



3,0 %

YAHM

7,7 %



2,6 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

3,3 %



3,8 %

Sanoat

12,8 %



-10,2 %

Qurilish

15,3 %



5,0 %

Xizmatlar


7,1 %

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 109,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 115,9 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining – 108,7 % qayd etildi..

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023- y.

2024- y.



2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 4 036,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 3 752,2 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 65,6 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 72,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining koʻpayishi bilan bogʼliq.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da



2023- yil

3 752,2

72,4 %

2024- yil

4 036,2

65,6 %

